



AQSH "AQLIY MARKAZLARI"NING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

Abdullayeva Ra'noxon Alisher qizi¹

¹ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
+9988033993
abdullayevano.2012@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5550726>

ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 21 сентября 2021 г.
Утверждено: 25 сентября 2021 г.
Опубликовано: 30 сентября 2021 г.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Think tanks, aql markazlar, Milliy tadqiqot kengashi, Yangi Amerika asri loyihasi

АННОТАЦИЯ

Davlat boshqaruvi juda ma'suliyatli ish hisoblanib, ushbu faoliyatni olib borishda maxsus ekspertlarning tahliliy hulosalariga tayanadigan AQSh hukumati hayotida Think tanks ya'ni aql markazlar muhim o'rin egallaydi. Tahliliy tadqiqotlar markazlari, ularning tashkil etilishi, maqsadlari va davlat boshqaruvidagi ta'sir kuchlarini o'zida aks ettirgan ushbu maqolada yaqqol misollar keltirilgan.

"Think tanks" ya'ni "Aql markazlar" ijtimoiy-siyosiy muammolarni o'rganish bilan shug'ullanadigan va mustaqil baholash va tavsiyalarni ifodalovchi ekspert - tahlil tashkilotlari – XX asrning boshlarida Qo'shma Shtatlarda paydo bo'lgan. Yuz yildan ortiq vaqt mobaynida 182 mamlakatlarida barcha qit'alarda yetti-sakkiz mingga qadar tarqalgan.¹ AQShda "aqliy markazlar" atamasi siyosat, iqtisodiyot, harbiy-siyosiy muammolar, sanoat va texnologik rivojlanish strategiyalari va zamonaviy siyosiy masalalar haqida munozaralar olib boradigan tashkilotlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. "Aql markazlar" AQSh davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb eta boshladilar va muhim strategik qarorlar qabul qilishda, ushbu markaz

mutaxassislari o'zlarining tadqiqotlari, amaliy tahlillari bilan bevosita ishtirok etadilar.

AQSh aql markazlarini tadqiq qilish turli soha olimlari va jurnalistlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida boshlanib, siyosatshunos Jozef Peshek, tarixchi Donald Krichlouning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega. Alan Raukser va G. Villiam Domhof kabi sotsiologlar miya markazlarini batafsil tadqiqotlarni tayyorladilar va ko'pincha individual tashkilotlarga yoki ularning kichik guruhlariga e'tibor qaratdilar. Bir necha yil o'tgach, Jeyms Smit, Donald Abelson, Jeyms Makgann, Dayan Ston va Frenk Fisher kabi olimlar *To'g'ri ijtimoiy fikrlash fani asoslarini* yo'lga qo'ydilar.² Ushbu olimlarning say harakatlari olib

¹Согласно данным, представленным Brooking <http://foreignpolicy.com/2012/01/18/brookingstops-2011-think-tank-rankings>.

² Thomas Medvetz, *Think Tanks in America*, University of California, San Diego (University of Chicago Press, 2012)



borgan ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh tarixida hukmron sinflarning olimlar va mutaxassislarni asosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish istagi bor edi. Milliy fanlar akademiyasi 1863 yilda AQSh Kongressining maxsus qarori bilan Kongress va hukumatning kollektiv maslahatchisi sifatida tashkil etilgan - uning 50 nafar a'zosi yakka va jamoaviy organ sifatida mamlakat rahbariyatiga ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim masalalari bo'yicha maslahatlar beradigan organ sifatida xizmat qilishi kerak edi. Keyinchalik, Milliy muhandislik akademiyasi (NAE) va Tibbiyot instituti (IOM) qonun hujjatlariga muvofiq Fanlar akademiyasiga birlashtirildi. Birgalikda ular ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha hukumat va Kongressning asosiy maslahatchisi bo'lib qoladigan *Milliy tadqiqot kengashini* (NRC) tuzdilar. Amerika Qo'shma Shtatlarida ilmiy markazlar kabi tashkilotlarning paydo bo'lishi amaliy siyosat muammolarini hal qilish uchun ilmiy va professional tajribani jalb qilishning mantiqiy davomidir.³

AQShda XX asrda "Aql markazlar"ining paydo bo'lishi Amerika ilmiy hayotida "jadallashgan davr" deb nom olgan.⁴ Ushbu davr Amerika davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotini yanada rivojlantirishga qaratilgan edi. "Aql markazlari" ning mafkuraviy mahsulotlari – amaliy siyosiy ekspertiza,

analitik maqolalar, fundamental nazariy ishlar hisoblanadi. Ushbu tuzilmalarning asosiy maqsadi muayyan dolzarb muammolarni chuqur o'rganish (davlat buyurtmasi doirasida tegishli grant yoki o'z tashabbusi bilan) va amaliy yechimlarni ishlab chiqish, AQSh harbiy-siyosiy rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.⁵

Bugungi kunga kelib, Qo'shma Shtatlar ijtimoiy fanlarni tashkil etishning juda keng tizimini ishlab chiqdi. Bizni AQSh siyosatshunoslarining davlat siyosatiga, bevosita ta'sir ko'rsatishga harakat qiladigan qismi qiziqtiradi. Uning tarkibiga vazirlik va idoralarning, ilmiy markazlarning, tijorat kompaniyalari va bo'limlarining analitik bo'linmalari, shuningdek, akademik tadqiqotlarning bir qator vakillari kiradi.⁶

AQSh aql markazlarining neokonservativlari asosan RAND korporatsiyasi, Amerika tadbirkorligi instituti hisoblanadi. Prezident Bush kichik, ilmiy markazlarning maslahatiga binoan Yangi Amerika asri loyihasini (PNAC) qo'llab, faol global tinchlikni va barqarorlikni saqlash uchun Amerika g'egemonligi g'oyasini afzal ko'rdi. Yangi Amerika asri loyihasi ham bu yerda imtiyozli zarbalar g'oyasining foydasini o'zida aks ettirdi. Uning Oq uyga rasmiy hujjatlarini topshirishida "rejim o'zgarishi" haqidagi ma'lumotlar kiritilgan, bu Iroq,

³ Кочетков Г.Б., Суюян В.Б. //«Мозговые центры» в США. Наука как инструмент реальной политики// Проблемы прогнозирования 2010, Стр 53

⁴ Теленьга М.П. Эволюция «мозговых центров» в рамках внешней политики США (XX в.). Краснодар: Историческая и социально-образовательная мысль. 2016. Том 8. № 4. Часть 1

⁵ Чеснаков С. Роль негосударственных «мозговых центров» в процессе принятия решений военнополитическим руководством США в области обороны и безопасности / [Электронный ресурс] - <http://www.pentagonus.ru/publ/19-1-0-1>

⁶ Баталов Э.Я. Мировое развитие и мировой порядок (анализ современных американских концепций). – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2005. – 114 с.



Afg'oniston, Liviyaga nisbatan Amerika istilosiga olib keldi.⁷ Ushbu misoldan ham, AQSh "aql markazlari" siyosiy hokimiyatda qay darajada ta'sir kuchiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, har bir nufuzli Aql markazining o'z nashriyoti mavjud bo'lgan bo'lsa, (masalan, Nikson markazi "National interest" (Milliy qiziqish), Amerika tadbirkorlar markazi "American enterprise", Fond kornegiy "Foreign policy" jurnallarini⁸ nashr qilsa,) hozirda esa internet juda yaxshi rivojlangan va har bir markazning o'z sayti bor, hamda ushbu saytda o'z maqola va boshqa ilmiy tadqiqot ishlarini hulosa va takliflarini nashr qiladilar.

Ko'pincha aql markazlari AQSh Kongressidagi tinglovlarda nutq so'zlashga taklif etiladi. Masalan, Bogatov V. Ma'lumot berib o'tganidek, 2005 yilda, Senatda Tashqi aloqalar qo'mitasi Amerika tashqi siyosatining turli jihatlarini bo'yicha yig'ma tinglov o'tkazdi, u yerda AQShning 21 tahlil markazlaridan 46 nafar ekspertlar so'zga chiqdilar.⁹ Ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, AQSh davlat boshqaruvida *think tank*larning ishtiroki sezilarli darajada bo'lib, ular muhim strategik masalalar yuzasidan analitik tahlillar olib borib, o'z hulosa va takliflarini taqdim etadilar. Albatta mutaxassislarining izlanishlari e'tibordan chetda qolmaydi. Dunyodagi ko'plab, hukumat va davlat

boshqaruvchi siyosatchilar, yetuk muttaxassislarning bilimlarini, siyosiy hokimiyatni olib borishda foydalanish imkoniyatlari yuzasidan muommolarga duch kelmoqdalar. Siyosatchilarga o'zlari boshqaradigan jamiyat haqida tushunarli, ishonchli hamda foydali ma'lumotlar zarur,¹⁰ ekanligini ta'kinlaydi, Pensilvaniya universitetida Aql markazlarning xalqaro tadqiqotlar dasturi direktori, PhD, Jeyms Makgann.

Aql markazlarining faoliyati har yili Pensilvaniya universitetida Jeyms MakGann rahbarligida ko'rib chiqiladi va tahlil qilinib boriladi. Shuningdek, so'ngi ma'lumotlarga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarining o'zida ularning soni 2203 tani tashkil qilmoqda, dunyo bo'yicha ilmiy tadqiqot markazlarining soni 11175 taga yetdi.¹¹

Aql markazlarining ortib borishi, ularning nafaqat son jihatdan, balki, ishlash uslubi hamda malakaviy mahoratining rivojlanish tendensiyasining ortib borayotganligi, hozirgi siyosiy vaziyatlarning keng talqin va tahlil qilinish jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, AQShning zamonaviy "ilmiy markazlari" murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa hisoblanib, uni aniq baholab bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, o'zining ichki mafkuraviy nomuvofiqligi qaramasdan, Mustaqil tadqiqot markazlari

⁷ Чесноков С. Роль негосударственных «мозговых центров» в процессе принятия решений военно-политическим руководством США в области обороны и безопасности // Зарубежное военное обозрение. – 2007. – №5. – С. 2-6.

⁸ Богатов О.В. (Волгоград) Американские аналитические центры и внешняя политика США, AMERICANA, Выпуск 8, г. Волгоград, 2006 г.

⁹ Богатов О.В. (Волгоград) Американские аналитические центры и внешняя политика США, AMERICANA, Выпуск 8, г. Волгоград, 2006 г.

¹⁰ James G. McGann, 2019 Global Go To Think Tank Index Report https://repository.upenn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1018&context=think_tanks

¹¹ McGann, James G., "2020 Global Go To Think Tank Index Report" (2021). TTCSP Global Go To Think Tank. Index Reports. <https://www.bruegel.org/wp-content/uploads/2021/03/2020-Global-Go-To-Think-Tank-Index-Report-Bruegel.pdf>



muhim ijtimoiy vazifani bajarmoqda - bir tomondan, ular Amerikaning ilmiy segmentlaridan biri bo'lib, ilmiy mahsulotlar ishlab chiqaradi, boshqa

tomondan esa ijtimoiy-siyosiy fikrning turli yo'nalishlarini aks ettiruvchi muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Согласно данным, представленным Brooking <http://foreignpolicy.com/2012/01/18/brookingstops-2011-think-tank-rankings>
2. Thomas Medvetz, Think Tanks in America, University of California, San Diego (University of Chicago Press, 2012)
3. Кочетков Г.Б., Супян В.Б. «Мозговые центры» в США. Наука как инструмент реальной политики // Проблемы прогнозирования 2010, Стр 53
4. Баталов Э.Я. Мировое развитие и мировой порядок (анализ современных американских концепций). – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2005. – 114 с
5. Теленьга М.П. Эволюция «мозговых центров» в рамках внешней политики США (XX в.) // Краснодар: Историческая и социально-образовательная мысль. 2016. Том 8. № 4. Часть 1
6. Чесноков С. Роль негосударственных «мозговых центров» в процессе принятия решений военно-политическим руководством США в области обороны и безопасности // Зарубежное военное обозрение. – 2007. – №5. – С. 2-6.
7. Богатов О.В. (Волгоград) Американские аналитические центры и внешняя политика США, AMERICANA, Выпуск 8, г. Волгоград, 2006 г.
8. James G. McGann, 2019 Global Go To Think Tank Index Report https://repository.upenn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1018&context=think_tanks
9. McGann, James G., "2020 Global Go To Think Tank Index Report" (2021). TTCSP Global Go To Think Tank. Index Reports. <https://www.bruegel.org/wp-content/uploads/2021/03/2020-Global-Go-To-Think-Tank-Index-Report-Bruegel.pdf>